www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

O‘zbekistonda pandemiyadan keyingi turizm xizmatlari bozori rivojlanish istiqbollari

Aktamov Abduvali Abdug‘ani o‘g‘li
Erkin izlanuvchi, +998905025797,
abduvaliaktamov@gmail.com

Annotasiya. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda turizm tarmoqlariga qaratilayotgan yuqori e’tibor natijasida yurtimizga tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy mehmonlar hamda sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlar, turizm infratuzilmasini yana-da rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti. Maqolada respublikamizda turizm xizmatlari bozorida pandemiyadan oldingi va keying holati tahlil qilingan. Shuningdek, turizm xizmatlarini statistic tahlil asosida rivojlantirish bo’yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В результате высокого внимания, уделяемого туристической отрасли в Узбекистане в последние годы, проводятся масштабные работы, направленные на дальнейшее развитие туристической инфраструктуры, создаются благоприятные условия для местных и иностранных гостей, посещающих нашу страну, и субъектов предпринимательства, работающих в этой сфере. реализуется. В статье анализируется ситуация до и после пандемии на рынке туристических услуг нашей республики. Также даются научно-практические рекомендации по развитию туристических услуг на основе статистического анализа.

Abstract. As a result of the high attention paid to the tourism sector in Uzbekistan in recent years, large-scale works aimed at the further development of the tourism infrastructure, favorable conditions for local and foreign guests visiting our country and business entities operating in the field are being implemented. The article analyzes the situation before and after the pandemic in the market of tourism services in our republic. Also, scientific and practical recommendations are given on the development of tourism services based on statistical analysis.

Kalit so‘zlar. Turizm xizmatlari, turizm xizmatlari bozori, turistik obyektlar, turizm sohasida tadbirkorlik, daromadlar, turizm faoliyatida marketing.

Turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri. O‘tgan ikki yil davomida sohada yaxshi o‘zgarishlar qilindi. Biroq oldinda turizmni ideal darajada rivojlantirish uchun bajariladigan ishlar talaygina. ‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonunida ayrim moddalarda turistik xizmatlar bilan bog‘liq tushunchalarning ta’rifi berilgan. Jumladan, Qonunning 3-moddasida turistik xizmatlar tushunchasi haqida: «turistik xizmatlar turistik faoliyat sub’ektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko‘rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar», – deb ta’riflanadi. Turistik xizmatlar majmui transport xizmati ko‘rsatishni, yashash, ovqatlantirish, ekskursiya xizmati ko‘rsatish, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish va boshqa xizmatlarni o‘z ichiga oladi», – deb belgilangan. Qonunning 21-moddasi: «Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish», – deb nomlanib, unda quyidagi jumlalarni o‘qiymiz: «Turistik xizmatlar majburiy sertifikatlashtirilishi lozim. Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va sertifikat berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Turistik faoliyat sub’ektining turistik xizmatlarni majburiy sertifikatlashtirishdan bosh tortishi, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishning natijasi salbiy bo‘lishi, shuningdek, sertifikatning amal qilishini bekor qilish turistik faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib qo‘yishiga, yoki litsenziyadan mahrum qilishga sabab bo‘ladi». Qonunning 3-moddasida:


www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

«Turistik vaucher», – deb nomlanib, unda: «Turistik vaucher – turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo‘lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat», deb qaraladi. Bizning nazarimizda, turistik xizmatlar sayohat davomida turistning barcha ehtiyojlarini qondirishga, ta’minlashga qaratilgan va xizmat ko‘rsatish sohasidagi aniq maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, ular turizm maqsadlariga, turiga va turistik xizmatning qanday yo‘naltirilganligiga to‘la javob berishi kerak.

Turistik xizmatlar – turist va ekskursant ehtiyojlarini qondirish va ta’minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, ular turizm maqsadlariga, harakteriga va turistik xizmatning qanday yo‘naltirilganligiga javob berishi hamda umuminsoniy tamoyillarga qarshi bo‘lmasligi kerak. Davlat standarti ta’rifiga ko‘ra, turistik xizmatlar – turistlarning ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi turizm tashkilotlari faoliyatining mahsulidir. Umuman xizmatlar – bu ko‘zga ko‘rinmas tovarning o‘ziga xos turidir. Xizmat bevosita iste’mol jarayonida yuzaga keladi va alohida holda bo‘lmaydi, bu xizmatning moddiy tovarga nisbatan asosiy farqidir. Bundan tashqari, tovar iste’molchiga olib kelib beriladi, turistik xizmat esa iste’molchi bevosita xizmatning amalga oshiriladigan joyiga olib boriladi. Shuning uchun ham turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish moddiy tovarlarni sotishga aloqador bo‘lgan qonunlar asosida emas, balki boshqa qonunlar majmui bilan boshqariladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2019-yilda respublikaga kirib kelgan sayyohlar soni 2016-yilga nisbatan 3,3 baravarga oshgan. O‘sha yili qariyb 6,7 million nafar turist O‘zbekistonda sayohat qilgan. Buning natijasida 1,6 milliard dollarlik turistik xizmatlar eksporti amalga oshirilgan. Mazkur ko‘rsatkich 2016-yilda

430,7 million dollarga teng bo‘lgan. 2020-yilda mamlakatga 7 million nafardan ortiq xorijiy sayyoh tashrifi kutilgandi.

Biroq, og‘ir pandemiya sharoitida barcha sohalar qatori turizm ham qattiq zarbaga uchradi, sayyohlar soni sezilarli darajaga kamaydi. Ya’ni 2020-yilda respublikaga 1,5 million nafar sayyoh kelgan, 261 million dollarlik turizm xizmatlari eksport qilingan.



www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

*Manba: Madaniyat va turizm vazirligi hisoboti

2021-yilda O‘zbekistonga nisbatan ko‘proq – 1,9 million nafar xorijiy sayyohlar kelgan va 422,1 million dollarlik turizm xizmatlari eksport qilingan.



*Manba: Madaniyat va turizm vazirligi hisoboti

2022-yilda turistlar soni yana keskin o‘sib, qariyb 5,2 million nafar xorijiy sayyohlar O‘zbekistonga tashrif buyurdi va ko‘rsatkichlar 2017-yilga (2,7 million nafar) nisbatan 1,9 baravarga o‘sdi. O‘tgan yili turizm xizmatlari eksporti hajmi ham oshib, 1,6 mlrd dollarga yetgan (2017-yilda 531 million dollar bo‘lgan). 2022-yilda ichki sayohat qiluvchilar soni ham 2017-yilga nisbatan (10,5 million nafar) 107 foizga o‘sib, 11,3 million nafarni tashkil qildi. 2023-yilda respublikaga 2020-yilda kutilganidek, 7 million nafar turist kelishi va 2 milliard dollarlik xizmatlar eksport qilinishi kutilmoqda. Pandemiyaning salbiy ta’sirida kutilmalar va o‘sish ko‘rsatkichlari uch yilga kechikdi deyish mumkin. Vazirlik axborotida turizmga jalb qilinayotgan investitsiyalar ulushi ortayotgani ham keltirilgan. Jumladan, 2021-yilda sohada investitsiya loyihalari doirasida umumiy qiymati 11,4 trillion so‘m mablag‘ o‘zlashtirilib, 495 ta loyiha amalga oshirilgan. Davlat investitsiya dasturi asosida mahalliy hokimliklar bilan birga 1,2 milliard dollarlik 62 ta loyihadan 562,7 million dollar investitsiya o‘zlashtirilib, 31 ta loyiha ishga tushirilgan.

2022-yil yakuniga qadar, turizm sohasida jami qiymati 21,6 trillion so‘mlik 727 ta loyihalar ishga tushirilib, tarmoqda qo‘shimcha 22 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratilgan. Tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya jalb qilish hamda raqobatbardosh xizmatlarni yo‘lga qo‘yishga berilgan e’tibor natijasida turizm bozoriga Hilton, Marriott, Hyatt, Wyndham, InterContinental Hotels Group va Accor kabi yetakchi mehmonxona brendlari kirib kelmoqda. Ular nafaqat Toshkent, balki, Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlariga ham qiziqish bildirib, o‘z faoliyatlarini tashkil qilmoqda.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

O‘zbekiston prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Investitsiya dasturi”ga xizmatlar sohasida qiymati 6 milliard 217 million 900 ming dollar bo‘lgan 144 ta loyiha kiritilgan. Shundan 3 milliard dollari (78 ta loyiha) turizm va madaniy meros sohalariga to‘g‘ri keladi. Hududiy investitsiya loyihalari hamda tadbirkorlik subyektlarining tashabbuslari bilan jami qiymati 10,5 trillion so‘m bo‘lgan 689 ta loyiha amalga oshirilishi va 17 ming 426 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Vazirlik axborotiga qaraganda, respublikada 2022-yil 1-iyul holatiga qiymati 5,7 trillion so‘m bo‘lgan 378 ta loyiha amalga oshirildi va natijada 9 ming 584 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. Madaniyat va turizm vazirligi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, respublikada 2018—2022-yillar davomida jami 6 ming 788 ta yangi sanitariya-gigiyena shoxobchasi foydalanishga topshirildi. Avtomobillarga yoqilg‘i quyish stansiyalarining sanitariya-gigiyena shoxobchalari bilan ta’minlanish ko‘rsatkichi 20 foizdan 96,9 foizga yetkazildi.

Turizm obyektlarida 3 ming 652 ta Wi-Fi nuqtalari tashkil etildi, 1 ming 901 ta yo‘l ko‘rsatkichlar o‘rnatildi, 132 ta axborot markazlari barpo qilindi. 440 ta yangi turizm obyektlari o‘rganilib, ushbu obyektlarning 250 tasi turizm marshrutlariga kiritildi. Bundan tashqari, turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlarini obodonlashtirish, suv va yo‘l infratuzilmalarini yaxshilash maqsadida respublika budjeti mablag‘laridan 1 trillion so‘m ajratildi. Sohada xorijiy va mahalliy sayyohlarga joylashtirish xizmatini ko‘rsatuvchi tadbirkorlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi. 2016-yilda O‘zbekistondagi joylashtirish vositalari soni 609 tani tashkil etgan. 2022-yil iyuldagi ko‘rsatkichlarni 2016-yil natijalari bilan taqqoslansa, joylashtirish vositalari soni 2,6 baravarga oshgani va ularn 1 ming 579 taga yetgani ma’lum bo‘ladi. Joylashtirish vositalari 2017-yilda 767 ta, 2018-yilda 914 ta, 2019-yilda 1 ming 188 ta, 2020-yilda 1 ming 308 ta, 2021-yilda 1 ming 442 tani tashkil etgan. 2022-yilning 1-avgust holatiga ko‘ra, respublikada 61 ta yangi mehmonxona va 122 ta xostellar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mahalla fuqarolari yig‘inlari, tog‘li va olis qishloqlarda mahalliy aholini ish bilan ta’minlash va maqbul narxlardagi joylashtirish vositalariga bo‘lgan ehtiyojni ta’minlash maqsadida joylarda oilaviy mehmon uylari tashkil qilinmoqda. 2018-yilda 106 ta oilaviy mehmon uylari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, 2022-yilning 1-iyuliga kelib, ularning soni 2 ming 667 taga yetdi. Shundan 223 tasi 2022-yilning o‘zida foydalanishga topshirilgan.

O‘zbekistonda 2016-yilda turistik tashkilotlar soni 484 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning 1-iyul holatiga ularning soni 1 ming 604 taga yetdi. Shundan 2022-yil davomida 112 ta yangi turistik tashkilotlar ish boshladi va 350 ga yaqin yangi ish o‘rni tashkil qilindi. Turizm sohasiga gidlarni tayyorlash yo‘nalishida ham ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Jumladan, 2018-yilda gidlar 574 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning 1-iyul holatiga ularning soni 2,4 ming nafarga tashkil qiladi. Sohada tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 100 ga soliq va bojxona imtiyozlari, xarajatlar va kreditlarni bir qismini qoplash, subsidiya hamda grantlar berish, foizsiz ssudalar ko‘rinishida davlat tomonidan qo‘shimcha ko‘mak va preferensiyalar berildi. Yoshlarni turizm sohasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022-yilning avgust oyidan boshlab, turoperatorlik faoliyatlarni yo‘lga qo‘yishlari uchun 50 million so‘mdan grant mablag‘lari berilmoqda.

O‘zbekistonda 91 ta xorijiy mamlakat uchun vizasiz rejim tadbiq etilgani ham sayyohlik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 2018-yil 15-iyuldan elektron kirish vizalarini berish tizimi yo‘lga qo‘yildi va bu tizimdan 57 ta davlat fuqarolari foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi hamda 101 mamlakat fuqarolari uchun vizasiz tranzit rejimi joriy etildi. Shu bilan birga, xorijiy sayyohlarga bir qator qulayliklar yaratildi. Xalqaro aeroportlarda “yashil” va “qizil” yo‘lak

tizimi yo‘lga qo‘yildi, tashrif buyuruvchilar aeroportdan o‘rtacha hisobda 2-3 soatda chiqib ketish vaqti 15-20 daqiqada amalga oshiriladigan tizim yaratildi. Mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlarni ro‘yxatga olish tizimini takomillashtirish va soddalashtirish maqsadida xorijiy fuqarolarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi butunlay elektron shaklga o‘tkazildi (ye-mehmon tizimi). Bularning samarasi o‘laroq, O‘zbekiston o‘tgan yil mobaynida Nyu-York Times (AQSH) va Gardian (Buyuk Britaniya) nashrlarining reytinglarida “Dunyoning turizm bo‘yicha eng ommabop mamlakati”, Wegoplace sayohatchilar portali tomonidan “Dunyoning eng xavfsiz 5 mamlakatidan biri” hamda CrescentRating (Singapur) va Mastercard tashkilotlari tomonidan “Dunyoning ziyorat turizmi bo‘yicha eng ommabop 10 ta mamlakatidan biri” sifatida yuqori o‘rinlarda e’tirof etildi. Bugun turizm yo‘nalishlari qatorida ziyorat turizmi alohida o‘ringa ega. O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishda ham yaxshi natijalarga erishilmoqda.

Hisob-kitoblarga qaraganda, 2019-yilda respublikaga tashrif buyurgan 6,7 million nafar xorijiy sayyohlarning 88 foizi musulmon mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. 2018-yilda uzoq xorij davlatlaridan 325 ming 827 nafar sayyoh O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilgan va ularning 35 foizi, ya’ni 115 ming 621 nafari musulmon sayyohlar bo‘lgan. 2019-yilda musulmon sayyohlar soni jami uzoq xorij mamlakatlaridan kelgan sayyohlar soniga nisbatan 34 foizni tashkil qilgan. 2021-yil 9-fevraldagi prezident farmoniga ko‘ra, 2021-yil 1-martdan boshlab, Bahrayn, Qatar, Kuvayt, Ummon sultonligi fuqarolari 10 kungacha vizasiz rejim tizimi orqali O‘zbekistonda sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlari bo‘lsa, shulardan 200 tadan ortig‘i YUNESKOning Jahon madaniy me’rosi ro‘yxatidan o‘rin olgan. O‘zbekistonning ziyorat turizmi salohiyati jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olinyapti. Masalan, 2007-yilda Toshkent shahri, 2020-yilda Buxoro shahri Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan “Islom olami madaniyati poytaxti” deb e’lon qilingan. 2019-yilning 21—23-fevral kunlari Buxoro shahrida o‘tkazilgan “I Xalqaro ziyorat turizmi forumi”da O‘zbekistonni ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e’tirof etish to‘g‘risida “Buxoro deklaratsiyasi” qabul qilingan. Mastercard va CrescentRating tashkilotlari tomonidan tuzilgan “Jahon musulmon sayohati indeksi 2019” xalqaro reytingiga ko‘ra, O‘zbekiston dunyoda musulmon sayyohlarni jalb qilayotgan mamlakatlar yigirmataligiga kirdi. Shu bilan birga, respublika Halal Travel Frontier 2020 hisobotida islomiy merosni qayta tiklash orqali musulmonlar turizmi bozorida yangi trendga asos solgan mamlakat sifatida e’tirof etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. 28.01.2022. PF-60

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g’risida. 12.05.2020 www.president.uz

[3] Kamilova F.K. – «Xalqaro turizm bozori»// T.: TDIU-2001

[4] Qudratov G‘.X., Tuxliyev I.S. «Turizm iqtisodiyoti». Uslubiy qo‘llanma. SamISI., S.: 2007 y.

[5] Tuxliyev I.S. «Turizm asoslari». Uslubiy qo‘llanma. SamISI, S.: 2018 y.

[6] Chudnovskiy A.D. Turizm i gosinichnoye xozyaystvo M.: YURKINGA. 2005.

Internet saytlari:

www.interunion.ru

www.world-tourism.org

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

www.wttc.org

http://www.wto-marketing.ru

http://www.tourism.uz/

http://www.tour.uz/

http://www.advantour.com/rus/

http://www.tours.ru/country/uz/

http://www.tours.ru/films/db/default.asp

http://uza.uz/ru/business/3405/

http://uza.uz/ru/documents/3403/

www.ftk.cc.uz

http://lex.uz/uz/doc/act2008-07.html

http://ftk.cc.uz/index.phtml